

**ISAJON SULTONNING “ONA YURT”, “MANZIL”, “OTAMGA NIMADIR BO’LDI”
HIKOYALARIDA YURT SOG’INCHI**

Jo’rayeva Surayyo Tolibjonovna

Samarqand davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti,

Yuldosheva Saodat Azizovna

Ilmiy rahbar, Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: *“Ona yurt”, “Manzil”, “Otamga nimadir bo’ldi” hikoyalari o’zbek adabiyotida vatan mavzusining zamonaviy talqinini namoyon etuvchi muhim asarlardir. Mazkur maqolada Isajon Sultonning hikoyalari tahlili, unda insonlar yashar ekan, qayerda bo’lmasin doimo o’z tug’ilgan makoniga intilishi, bolalik xotiralari, yaqinlariga bo’lgan sog’inch hissi hayotdagi har qanday moddiy narsadan ustun ekanligi ko’rsatilgan. Yozuvchi asar mazmunini yoritishda tabiat manzaralaridan unumli foydalangan, bu esa qahramonlar holatini aks ettirishda eng muhim vositalardan biridir.*

Kalit so’zlar: *tilsim, peyzaj, muallif nutqi, o’xshatish, yovvoyi behi, iliq qor, ong, yaxtak, tasvir.*

**ТОСКА ПО РОДИНЕ В РАССКАЗАХ ИСАЖОНА СУЛТОНА «РОДИНА»,
«ПУНКТ НАЗНАЧЕНИЯ», «ЧТО-ТО СЛУЧИЛОСЬ С ОТЦОМ»**

Джураева Сурайё Толибжоновна

*Магистрант 2-го курса Самаркандского государственного
педагогического института*

Юлдошева Саодат Азизовна

*Научный руководитель, доцент Самаркандского государственного
педагогического института*

Аннотация: *Рассказы «Родина», «Пункт назначения» и «Что-то случилось с отцом» являются важными произведениями, представляющими современную интерпретацию темы родины в узбекской литературе. В данной статье анализируются рассказы Исажона Султона, в которых показано, что где бы ни находился человек, он всегда стремится к месту своего рождения; подчеркивается, что воспоминания детства и чувство тоски по близким стоят выше любых материальных благ. Писатель умело использует картины природы для раскрытия содержания произведения, что служит одним из важнейших средств отражения душевного состояния героев.*

Ключевые слова: *тайна (tilsim), пейзаж, авторская речь, сравнение, дикая айва, теплый снег, сознание, яхтак (традиционная одежда), изображение.*

**NOSTALGIA FOR THE HOMELAND IN ISAJON SULTON’S SHORT STORIES
“MOTHERLAND”, “DESTINATION”, AND “SOMETHING HAPPENED TO MY FATHER”**

Dzhuraeva Surayyo Tolibzhonovna

2nd year master's student at Samarkand State Pedagogical Institute

Yuldosheva Saodat Azizovna

Scientific supervisor, Associate Professor at Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract: *The short stories "Motherland," "Destination," and "Something Happened to My Father" are significant works that represent a modern interpretation of the theme of the homeland in Uzbek literature. This article analyzes Isajon Sulton's stories, demonstrating that wherever people may live, they constantly yearn for their place of birth. It highlights that childhood memories and the feeling of longing for loved ones prevail over any material possessions in life. The author effectively utilizes landscapes and nature descriptions to illuminate the content of the works, serving as one of the most vital tools for reflecting the internal state of the characters.*

Keywords: *mystery, landscape, authorial speech, simile, wild quince, warm snow, consciousness, yakhtak (traditional tunic), depiction.*

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, bugungi kunimizga qadar vatan sog'inchi ruhida yozilgan bir qancha asarlar mavjud. Jahon adabiyotida Ernest Hemingvey "Qayiqdagi keksa odam", Nozim Hikmatning "Yana vatanim haqida" asarlarida vatan sog'inchi madh etilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqatlar ijodida ham aynan shu mavzu yetakchilik qiladi. Umuman ijodkor ahli ijod etarkan, doim vatan mavzusi yetakchilik qiladi. Rassomlar qalamda, shoirlar yozgan she'rlarida, hofizlar ashulalarida, biroq bu asarlar davr, janr jihatidan turli ko'rinishda bo'lsada o'lmas mavzulardan biri sifatida yangi-yangi shakllarda qayta jilolanaveradi.

Isajon Sultonning ham ayrim asarlarida yurt sog'inchi aks etgan. Bulardan "Manzil", Otamga nimadir bo'ldi", "Ona yurt" hikoyalari vatan sog'inchini yangicha talqin etgan. Ushbu asarlarda inson va uning tug'ilgan joyi o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik asosiy o'rinni egallagan. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab hayotada nimagadir intilib yashaydi. Chaqaloqlar hayotni o'rganishga, go'daklar kattalardek bo'lishga, navqironlar esa yana ham olg'a intilishga harakat etadi. Shu bilan inson hayotining suvdek o'tib ketyotganini sezmay qoladi. Keksayganda esa ortga boqarkan yana bolaligiga qaytgaisi kelib sog'inchi azobi o'rtayveradi. Ushbu hikoyalarda ham kishilarning bolaligi o'tgan makonning naqadar azizligi, keksayganda ortga boqarkan sog'inchi azobi, ortga qaytmas yillar haqidagi qarashlari jonli tasvirlangan.

Muallif "Ona yurt" hikoyasining boshlanishida shunday yozgan: "Bu hikoya-odamlar, voqealar, hodisalar haqida emas. Bu hikoyaning qahramoni-qishloq". Ammo yangicha ta'riflardan foydalangan. "Jon olguvchi bir nozanin ana o'shanday tarzda ming evrilib, ming o'griladi" [n.ziyouz.com]. Bu holat qahramonga azob beryotganligi keltirilgan. Sababi har nozlanganda yangicha yaralar uyg'otadi. Bu ko'proq mumtoz adabiyotdagi yor tasvirlarini yodga solidi. Chunki ijodkorlar tug'ilgan joyi haqida yozsa, qishlog'ining so'limligi, go'zalligini ko'proq ta'riflaydi. Jumladan, Mirtemirning "Qishlog'im" she'rida

Qishlog'im, nechog'lik suluvsan bugun.
Yashilga burkanib yashnabsan shuncha.
[Mirtemir Asarlari-tafakkur.net.]

Misralarida bir qarashda so'lim go'sha gavdalanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyda ham Vatan haqida juda chiroyli qarashlari bor. "Turkiy guluston yoxud axloq" kitobida shunday jumlar keltirilgan. Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimular shimol taraflarni eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. [A.Avloniy <https://in-academu.uz>]. Yuqorida aytilganidek Vatan mavzusi barhayot mavzulardan biridir. Ijodkorlar yangicha sayqallaydi. Bu kabi qarashlar qoraqolpoq shoiri Ibroyim Yusupov ijodida ham ko'zga tashlanadi. "Qadrdon so'qmoqlar" da ushbu satrlarga nazar tashlasak.

Gul terib kapalak quvgan sho'x vaqtim,
Anov bedazorda yurgan toy dersan.
Yo tavba shu bitta qiyshiq so'qmoqning,
Dilga yaqinligin qanday aytarsan.
[Ibroyim Yusupov <https://vostoka.ucaz.com>.]

Misralarda aytilganidek so'qmoqlar to'g'ri ham emas, ammo shunchalar dilga yaqinki, uni madh etishga so'zlar topolmayman deb ijodkor bolaligini esga oladi. Isajon Sultonda esa yangicharoq talqinda gavdalangan.

Avvallari unung fel-atvori, injiqliklariborligini bilmas ekanman, endi o'ylasam bir jonlidan sira kam emas-yaslangan bog'u rog'lari, o'ynab oqqan ravon suvlari, bepayon dalalariyu sinchli uylari bilan allaqachon tilga kirib, menga bir nimalarni so'zlab ham ulguribdi. Hikoyadagi shu jumalari orqali qishloqni jonlantirib tasvirlagan bo'lsa, yomg'irlari yoqimli, to'nka ko'chirar shamollari ham o'ynab-quvnaib esganday, hatto qishda qalin yoqqan qorlari ham iliqday taassurot qoldiribdi. [n.ziyouz.com]. Jumalaridan qishloqning tafti haqida so'z borligiga guvohi bo'lamiz. Sababi qalin qor yog'ar ekan, ammo iliqdek.

Shamollar to'nka ko'chirar darajada qattiq esyapti, lekin o'ynab oqqandek deb ijodkor yodga oladi. Bazan mehribon kishisiga ham o'xshatgan. Masalan, meni koyiydi, arazlaydi, ko'zda yoshi silqiydi, xafa bo'lib "Nima qilib qo'yding... o'zingni?" deb so'raydi onamning tovushi bilan. "Mana shu bodom novdasiday gul ochgan chog'ingda bag'rimdan uzilib ketgan eding, sog'indimku seni?" deydi xolam kabi. Bir qarasam, onam bo'lib tuproq yo'ldan ergashib kelayotir [n.ziyouz.com].

Jumalarida qishloqni nafaqat bir qarich tuproq, balki insonning borlig'i yaqinlari kabi so'zlatadi. Bu esa muallif tomonidan qo'llangan yangicha ta'riflar edi. Hikoya so'ngida ijodkor, qishlog'iga qayta olmasam, bulut bo'lib yomg'ir bo'layin deya murojaat etadi. Maqsad shu qadrdon tuprog'ing uzra bir o't, bir maysa bo'lib unib chiqish uchun... azizim mening! deya yakun yasaydi. Ijodkor uchun tug'ilgan yeri geografik hudud emas, insonning poydevori, "ildizi" dir.

Asarda asosiy e'tibor bolalik xotiralari, tug'ilgan maskanga bog'liqligi orqali "yurt" tushunchasining qiymatini namoyon etadi. Bu yondashuv psixologik prozaning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Hikoyada qahramonning ruhiy holatini ochish uchun monologlar, psixologik parallelizmdan foydalangan.

Ijodkorning "Manzil" hikoyasida ham vatan sog'inchi o'ziga xos talqinda yaratilgan. Hikoyaning o'ziga xosligi shundaki, boshdan oxirigacha ramziy obrazlardan foydalangan. Asarda gullab-yashnagan voqa, o'lim sahrosi, Ko'hi Qof ramziy manzillar bo'lsa, pariylar ramziy obrazdir.

Karvonda insonlarni birlashtirgan jihat, mo'jizadir. Har bir kishining ismiga zarb etilgan tilsim qopqoqlari bor. Ular ko'p yillar ilgari yo'lga chiqqanlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning "Lison-ut tayr" asaridagi kabi. Navoiy bobomiz ham inson ahloqidagi eng yomon illatlardan biri bo'yluk to'plash uchun yashash ekanligini aytib o'tgan.

Bore di bir mulk aro devonae,
Kecha-kunduz maskani vayronae.
Ganj umidi birla umrin o'tkazib,
Har dam ul vayrona bir yonin qozib.
[Lison ut-tayr, n.ziyouz.com].

Insonlar bo'yluk topish maqsadida yashar ekan, hayotning asl mazmunini unitib, anglab yetganlarida vaqt ketgan bo'lishiga urg'u bermoqchidek. Ushbu hikoyaning mavzuga oidligi shundaki, qahramonlar manziliga yetadilar, manzillariga yetganlarida esa afsus chekadi. Ketgan vaqti, umriga achinadi, erishgan natijalari negadir mantiqsizdek ko'rinadi. Qahramonlar o'z yurtlariga qaytishni istab qoladi, ammo ortga qaytgan bilan manzil olis, yeta olishiga ishonchi komil bo'lmasa ham ortga yo'lga qaytadi.

Maqsad bir kishi bo'lsa ham yurtga qaytadi. Noumid yo'lda yurarkan oralaridagi eng yosh Abdullaga biz endi bor umidimiz sendan. Bizlarga nima bo'lsayam hayallama, otingga qamchi ur. Bu yo'llarda qulasak suyayman deb vaqtingni zoe ketkizma.

Bizlar yosh bilan otdan yiqilarkanmiz, ortingdan termulib qolamiz. Toki sen ko'zdan g'oyib bo'lar ekansan, begona bu yurtlar tuprog'iga bosh qo'yayotib, osmoni feruza, suvlari kumush tuprog'i oltin, kishilari xushbaxt vatanimizga yetib borganingni, yo'lchilarga bu tilsimning haqiqatini yetkazganingni tasavvur qilamizu shu bilan buy o'llarga so'ng bor tikilamiz va hech qanday tilsim baxsh etaolmaydigan oromga -abadiy uyquga manguga cho'mamiz...[n.ziyouz.com].

Asardan olingan bu parchadan ko'rinadiki, insonlar o'zga yurtlarda istagan narsasini: pul, mansab topishi mumkin, ammo xushbaxt vatanini, kumush tuprog'ini topa olmadilar. Orzulariga yetguncha qancha kishilar mansablarga uchib qolib ketdi, qanchalari pariylar yurtida yashab qoldi. Yetib kelganlar esa umri sarobga aylanganligini angladilar. Shuning uchun ham oralaridan eng yoshini qaytarib, qolganlar biz qilgan ishlarni takrorlamasin, tilsim deb yo'lga chiqmasin deb tushuntirdi.

Bu hikoya meni nazdimda, bugungi kunda ko'pchilikning orzu-xavas deya boshqa yurtlarga ketishi ,yillar o'tib afsuslanib, hayoti mantiqsizlanib ortga qaytishi tasvirlangandek.

Chunki oralarida o'n besh kunlik oyday mahbubasini tashlab kelgan Muslim ham ortga qayta olmaydi, shuning uchun o'y-xayollariga berilib ot ustida chayqaladi -deb tasvirlanadi [n.ziyouz.com].

Bugungi kunda uyida o'z baxtini tashlab o'zga yurtlarda daydib yurgan kishilar tanqid qilingan, menimcha. Bu hikoya kitobxonni o'z hayotiga nazar tashlashga, vaqtning beshavqat ekanligini inobatga olishga o'rgatadi, o'ylashga majbur etadi. Isajon Sultonning "Manzil" hikoyasida yo'lidan adashgan insonlar hayoti, buning natijasida yurtiga sog'inch azobida yurgan kishilar tasvirlangan bo'lsa, "Ona yurt" hikoyasi orqali milliy ruh, tug'ilgan makonninig qadriga yetish,inson yaqinlaridan,ildizidan uzilmasligi kerakligini mahorat bilan aks ettirgan. "Otamga nimadir bo'ldi" hikoyasida bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yoritilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki hikoyada aynan pul ishlab kelish uchun o'zga yurtga ketgan qahramon timsoli keltirilgan. Boshqa hikoyalardan farqli ravishda ota uyda yo'q vaqtida farzandlarning mehr izlab azoblanishi,otasini izlagan bolakay orqali yoritilgan. Siz uyda bo'lsangiz ,u qasr bo'p ketadi.

Uyam boshqa uylarga maqtanadi, qara egamni savlatini ko'r, deya. Kelaqoling,otajonl. Yelkangizga minib olay yulduzlarga qo'lim yetadigan bo'lsin. Yuqoridagi monolog orqali otasiz uyda bolaga hech narsa tatimayotganligini ko'ramiz. Chunki siz uyda bo'lsangiz uy qasr bo'lib ketadi, jumlasida, otasiga faqat o'zingiz bo'lsangiz yetarli hamma narsa topiladi demoqchidek. Ota ham o'zga yurt tuprog'ida yurar ekan qanday xato qilganligini anglab yetadi. Ushbu muallif tilidan keltirilgan monologga diqqat qilsak. "Ey Xudo","Eson-omon oyoqqa turib olsam,o'sha zahoti uyimga ketaman! Bu yerlarni yelkamni chuquri ko'rsin! Menga nima bor edi begona yurtlarda,birovlarga mo'ltirab non topib? Men nodon, bolalarimni o'zimga intizor qilib qo'yibman-ku? Yetti avlodim umri bo'yi tuproqdan rizqini chiqarib bola-chaqasini boqqan,ota-buvam "Yeti pushtingga yetadi", degan edi. Nima qilib yuribman yerimdan, elimdan, jigarlarimdan ayrilib?" Ko'rinadiki, ko'pchilik pul topsam barcha muammolar yechim topadi deb o'ylaydi, fikr yuritadi. Afsuski, muammoning yechimi o'zligimizda. Tezroq pul topaman deb sog'liliqdan, farzandlar mehridan,ota-ona diydoridan uzoqda kun kechirgan insonlarning afsus-nadomati bu hikoyada ko'rsatilgan. Dunyo bo'yicha har yili ko'pchilik yoshlar: o'qish, ish tezroq pul topish maqsadida o'z yurtidan uzoqlarga ketadi, ammo zahmat chekmasdan oson boyib bo'lmasligini tushunib yetganda yillar o'tgan, yoshlik ketgan bo'ladi. Ba'zi insonlar, o'z yurtiga qayta olmay vatan sog'inchida dunyoni tark etadi.

Isajon Sultonning "Manzil", "Ona yurt", "Otamga nimadir bo'ldi" hikoyalarda vatan sog'inchi yuqorida ko'rib o'tganimizdek turlicha talqin etilgan. "Ona yurt" hikoyasida o'z yurtida yashasa ham qishlog'ini, yoshligi o'tgan manzillarni yod etish ruhi kuzatilsa, "Manzil" hikoyasi mavzuga falsafiy yondashilganligi bilan ahamiyatlidir.

“Otamga nimadir bo’ldi” hikoyasida esa to’g’ridan-to’g’ri bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri, oila ustunlarining o’zga yurtlarda ketgan vaqtida, farzandlarning azoblanishi, ya’ni bugungi kunning eng og’riqli nuqtasi ko’rsatilgan. Hikoyada ichki monologlar qisqa bo’lishiga qaramay kitobxonni qahramon ruhiy dunyosiga olib kiradi. Bu esa hikoyaning ta’sirini oshirishga xizmat qiladi. Hikoyada vaqt aniq sanalar bilan emas, ruhiy kechinmalar oqimi bilan belgilanadi. Bu modernistik yondashuvga xos xususiyatdir.

Makon esa tor, yopiq bosimli tarzda tasvirlanadi. Bu holat otaning ruhiy holati bilan parallel ravishda o’sib boradi. Hikoyadagi ota obrazi faqat bir shaxs tarzida emas, keng ma’noda “avlod timsoli” o’zgariyotgan zamon, kishilarini o’zida mujassamlashtirgan.

Ota shaxsiy hayotini izdan chiqish jarayonida ekanligini muallif mahorat bilan tasvirlagan. Hikoyada to’g’ridan -to’g’ri yurtimni sog’indim demasa ham yo’qotilgan ilqlik, eski hayotiga sog’inchini his qiladi. Bu hikoya zamonaviy ruhiy-psixologik hikoyachilikning yorqin namunalaridan biri desak mubolag’a bo’lmaydi. Asarning mag’zi shundan iboratki, insonni eng ko’p qiynaydigan narsa ichki qarama-qarshilik, moddiy qiyinchilikdan ma’naviy qiyinchilik qiyinroq ekanligini dalillab bergan.

Oil va barqarorlikni sog’inish orqali yurt sog’inchi keltirilgan. Xalqimizda vatan ostonadan boshlanadi degan naqlar bejiz aytilmagan. Kim qayerda yashashidan qat’i nazar, kishi yaqinlarining taftini, tug’ilgan tuprog’ini sog’inib ularga intilib yashashi har uchala hikoyada turlicha talqin etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isajon Sulton. Ona yurt. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Isajon Sulton Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2010.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.
4. Mirtemir Asarlari-tafakkur.net.
5. Abdulla Avloniy <https://in-academu.uz>
6. Ibroyim Yusupov <https://vostoka.ucoz.com>.
7. Isajon Sulton ijodini o’rganishga bag’ishlangan maqolalar (o’zbek adabiyotida ona yurt obrazining badiiy tahlili).
8. Isajon Sulton. Otamga nimadir bo’ldi. <https://n.ziyouz.com>
9. Isajon Sulton. Manzil. <https://n.ziyouz.com>
10. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. <https://xdp.uz>
11. Jo’rayeva Surayyo Tolibjon qizi, & Yuldosheva Saodat Azizovna. (2025). Isajon Sulton hikoyalarida novatorlik. Ustozlar Uchun, 1(1), 478–481. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/113091>
12. Azizovna, Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. Central European. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf

13. Yuldosheva Saodat Azizovna. (2025). Uzluksiz ta'lim bosqichlarida uzviylik masalasi ("Adabiyot" fani o'quv dasturi misolida) . Ustozlar Uchun, 1(1), 761–765. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/113166>
14. Azizovna, Y. S. On the Development of Expressive Learning Skills. International Journal on. <https://www.journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>
15. Azizovna, Y. S. Cognitive Of Students In Language Education Developing Skills. (2021). JournalNX - междисциплинарный рецензируемый журнал , 514-516. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/2982>
16. Azizovna, Y. S. Formation Of Sense Of Respect In Students. JournalNX, 1026-1028. <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/26667>